



Nazarova Muharram Yunus qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
Email: nazarovamuharram96@gmail.com

JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLAR SOTSIOMADANIY QIYOFASIDAGI O'ZGARISHLAR

Annontatsiya. *Ayollar huquqlarini maxsus himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy huquqiy asos hamda mexanizmlar, bugungi kunda ayollar huquqlari tushunchasi vujudga kelganini hamda bu tushuncha asosida inson huquqlarining alohida sohasi shakllanganini ko'rsatadi. Ushbu maqolada ijtimoiy va siyosiy hayotda xotin-qizlar huquqlarining shakllanish bosqichlari hamda ayollarning jamiyatda teng huquqlilikka erishishining onuniy tarixi haqida so'z yuritiladi.*

Аннотация. *Международная и национальная правовая основа и механизмы, направленные на специальную защиту прав женщин, показывают, что на сегодняшний день возникло понятие прав женщин и на основе этого понятия сформировалась особая сфера прав человека. В этой статье рассматриваются этапы формирования прав женщин в общественной и политической жизни, а также законная история достижения женщинами равных прав в обществе.*

Annotation. *The international and national legal frameworks and mechanisms aimed at the special protection of women's rights demonstrate that the concept of women's rights has emerged in contemporary times, and based on this concept, a distinct field of human rights has been formed. This article discusses the stages of the development of women's rights in social and political life and the legal history of women's achievement of equal rights in society.*

Tayanch so'zlar: *feminizm, Ayollar huquqlari deklaratsiyasi, Pekin deklaratsiyasi, zo'ravonlik, Ayollar huquqlari deklaratsiyasi, "Ayollarga nisbatan zo'rliklar va jabr-zulmlarga barham berish to'g'risida"gi Deklaratsiya.*

Ключевые слова: *феминизм, Декларация прав женщин, Пекинская декларация, насилие, Декларация прав женщин, Декларация "О ликвидации насилия и притеснения в отношении женщин".*

Keywords: *feminism, Declaration of the Rights of Woman, Beijing Declaration, violence, The Second Sex, Declaration of the Rights of Woman, His story, her story, Declaration on the Elimination of Violence and Abuse against Women. Feminism, Declaration of Women's Rights, Beijing Declaration, Violence. Second gender, Declaration of Women's Rights, His story, her story, Declaration on the Elimination of Violence and Oppression against Women.*

Kirish. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, ayollarning ijtimoiy himoyasi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin: "Ayolni e'zozlash, ayolga ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos olijanob qadriyat hisoblanadi. Biz, barchamiz qanday kasb, qanday lavozimda ishlamaylik, qalbimiz, yuragimizdagi jamiki ezgu fazilatlar uchun siz, mehribon ayollardan umrbod qarz dormiz. Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi"¹. Shuning uchun ham O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bilan birga, bu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi

Asosiy qism. Qadimgi davrdan boshlab bugungi kunga qadar ayollar roli oshib borishi haqida Simona de Bovuarning "Ikkinchi jins" asari chinakam shuhrat qozondi. Asar esse shaklida bo'lib, unda ayollar haqidagi mashhur mulohazalar, qarashlar, ta'limotlar tahlil etiladi. Insoniyat tarixi go'yo ikki qutbning o'zaro kurashi sifatida ko'rsatiladi. Muallif erkaklarning uzoq tarix davomida mutloq hukmron jins bo'lganini fiziologik, psixologik, ijtimoiy dalillar bilan asoslaydi. Ayollar erkaklarga teng inson sifatida baholanmagan". De Bovuar muammoning sabablarini bunday izohlaydi: "Onalik mavqeyi baland bo'lgan ilk dehqonchilik davrida ham ayollar yetakchilikni qo'lga ololmadi, chunki farzand tug'ish, uni tarbiyalash faoliyat emas, tabiiy jarayon edi. Ro'zg'or va onalik majburiyati doimiy bir xil ishni takror bajarishga ixtisoslashtirdi. Bu ish asrlar o'tsa ham, o'zgarishsiz takrorlanaverdi. Oqibatda esa ayollar arzigulik yangilik yaratmadi, yarata olmadi. Erkaklarning yo'rig'i boshqa edi: jamoani oziq-ovqat bilan ta'minlash xuddi asalarilarnikidek shunchaki tabiiy jarayon bo'lmadi, u ayni paytda transendentlikni,

Qadimgi davrdan boshlab bugungi kunga qadar ayollar roli oshib borishi haqida Simona de Bovuarning "Ikkinchi jins" asari chinakam shuhrat qozondi. Asar esse shaklida bo'lib, unda ayollar haqidagi mashhur mulohazalar, qarashlar, ta'limotlar tahlil etiladi. Insoniyat tarixi go'yo ikki qutbning o'zaro kurashi sifatida ko'rsatiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi" 7-mart, 2017-yil

J.J. Russo (1712-1778): “Ayol kishi nafis va o‘tkir idrok egasi, shuning uchun u faqat ro‘zg‘or yumushlari va farzand tarbiyasidan tashqari ta‘lim olish imkoniyatiga ham ega”, deb hisoblaydi.

ya’ni o‘z mohiyatini ifodalash faoliyati ham edi. Homo faber asrlar o‘tib kashfiyotchiga aylandi. U omoch ixtiro qildi, daryolarga to‘g‘on qurdi, kurashdi, jang qildi, dunyoga hukmron bo‘ldi. U har qanday maqsadini tom ma’noda erkin, mavjud inson bo‘lib amalga oshirdi. U hayotni saqlab qolishga intilib, oqibatda ixtirochiga aylandi, u bugunni emas, kelajakni bunyod qildi: ovchilik, baliqchilik muqaddaslashtirildi, jangchi qahramonlar sharafiga shon-shuhrat yog‘ildi. Ular bugun ham osmono‘par binolar qurib, atom reaktorlarini kashf etarkan, ana shu g‘ururni tuyadilar. Ayollarning ulkan fojiasi shundaki, ular erkaklar bilan birga yovvoyi hayvonlar bilan kurashmadilar, dushman bilan jang qilmadilar, dunyo yaratmadilar. Ayollarning reproduktivligi yaratuvchanlik emas, shunchaki nasl qoldirish bo‘ldi”². Asar o‘sha davrda juda katta shuhrat qozondi. U ayollar haqida yozilgan klassik adabiyotlar qatoridan joy oldi. J.J. Russo (1712-1778): “Ayol kishi nafis va o‘tkir idrok egasi, shuning uchun u faqat ro‘zg‘or yumushlari va farzand tarbiyasidan tashqari ta‘lim olish imkoniyatiga ham ega”, deb hisoblaydi. Uning fikricha, nikohlar muhabbatga asoslangan bo‘lishi kerak va ikkala jins ham mustaqil ravishda juft tanlash huquqiga ega³. Ayollarga nisbatan siyosiy, fuqarolik va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada, shuningdek, jins belgisi bo‘yicha kamsitishning barcha shakllariga barham berish jamiyatning birinchi galdagi vazifalaridir. XIX asr ikkinchi yarmida fransuz tilida “feminizm” tushunchasi (lot. Femina – ayol) yuzaga keldi. 1830-yilda “emansipatsiyalashgan ayol” (lot. yemancipation – ozodlik) atamasi paydo bo‘ladi. Fransiyada feminizm harakati Buyuk Inqilob davrida XVIII asr oxirida paydo bo‘ladi. Bu davrda O. De Guj “Ayollar huquqlari deklaratsiyasini” ishlab chiqdi. Bu, o‘z navbatida, qonunchilikda mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarga o‘ziga xos javob bo‘ldi. Inson huquqlari deklaratsiyasi, bir tomondan, jinslar o‘rtasidagi teng huquqlikni targ‘ib etsa, ikkinchi tomondan, Napoleon kodeksiga ko‘ra, ayollarning o‘rni faqat oila doirasida ekanligi targ‘ib etilgan. XX asr 70-yillarining oxiri va 80-yillarining boshlarida gender o‘lchovi gumanitar fanlarda mutlaqo yangicha yo‘nalish bo‘ldi. Bu yo‘nalish tarixiy kichik fan sifatida G‘arbiy Yevropada va AQShda feminizm nazariyasi ta’siri ostida va feminizm harakatining ikkinchi to‘lqinida jamiyat ijtimoiy tarixiy rivojining yangi ijtimoiy tarix doirasida shakllandi. Tez orada xotin-qizlar tarixi mustaqil rivojlana boshladi va tarix fanining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Radikal kayfiyatdagi tadqiqotchi ayollar hatto o‘zlari “His-story” “erkakning tarixi” deb o‘qiydigan odatdagi “History” – “Tarix” ni “Her-

² С. де Бовуар “Второй пол” Азбука-Аттикус, Новый культурный код, 1949. – С.150.

³ Энциклопедия афоризмов. – Минск, Совр. литература, 1999. – С.47.

story” - “ayolning tarixi” bilan almashtirishni taklif qildilar. 1899-yil P.Y.Astafyevaning “Psixik ritm tushunchasi jinslar psixologiyasining ilmiy asosi sifatida” va “Ayolning psixik dunyosi, uning o‘ziga xosliklari, ustunliklari va kamchiliklari” asarlari e‘lon qilinadi. U vaqtni psixik hayotning muhim omili sifatida tasvirlaydi (psixik akt va hodisalarning tezligi). Bu omilga ko‘ra erkak va ayolning psixik turlari ajratiladi. Ayollarning tezkor psixik sur‘ati, erkaklarni esa sekin sur‘at ajratib turadi. Bu psixologik ritmninng o‘ziga xosligi quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi. Liberal feminizmdagi yorqin siymolardan biri B. Fridan xotin- qizlarning oilaviy va kasbga doir vazifalarini birgalikda qo‘shib olib borishlari uchun ijtimoiy shart-sharoitlar yaratib berish fikrini o‘rtaga tashlagan. Quyidagilar ana shunday shart-sharoitlar jumlasidandir:

- ta‘lim muassasalarida, ishga qabul qilishda jinsiga qarab kamsitishga barham berish;

- xotin-qizlar uchun malaka oshirish maxsus dasturlarini ishlab chiqish;

- maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini, shuningdek, ishning o‘zgaruvchan jadvalini tashkil etish, erkaklarni uy yumushlarini bajarishga;

- bolalarga qarashga jalb etish, ayollar va erkaklarga bolani parvarish qilish uchun ta‘tillar berish.

“Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida ayollar ijtimoiy-madaniy hayotda qatnashibgina qolmay, o‘ziga xos madaniyat ham yaratdilar. Uni “ayollar madaniyati” deb atash ham mumkin”⁴.

Jahon amaliyotida ayollar rivojlanishi dasturlarining ijtimoiy faollikni amalga oshiruvchi butun bir mexanizmi allaqachonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 1988-yilda Yevropa rivojlanish va boshqarish bo‘limi rahnamoligida rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun bir qator dastur-treninglar tarqatilgan⁵.

Xalqaro miqyosda xotin-qizlar huquqlari harakati ikki asosiy bosqichga bo‘linadi:

Birinchi bosqich bu diskriminatsiyaga qarshi kurash bo‘lib, ushbu harakat natijasida 1979-yili Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilingan. Unda sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasidagi, jamiyatdagi munosabatlar,

Jahon amaliyotida ayollar rivojlanishi dasturlarining ijtimoiy faollikni amalga oshiruvchi butun bir mexanizmi allaqachonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 1988 yilda Yevropa rivojlanish va boshqarish bo‘limi rahnamoligida rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun bir qator dastur-treninglar tarqatilgan

⁴ S.Safayeva. Ayollar masalasi – umumijtimoiy va milliy jihatlar. – T.: O‘zbekiston, 2003. – B. 34.

⁵ R.Ubaydullayeva. Faol ishlovchi shaxs // Ijtimoiy fikr-inson huquqlari, 1999. №1-2. – B. 12.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va roliga nisbatan shakllangan aqidalar asosidagi munosabatlar qonunan mustahkamlangan va huquqiy normalar bilan belgilangan emas, biroq ularga o'zgartirish amri mahol bo'lgan mangu masala sifatida qaraladi.

siyosiy hayotdagi ishtirok va oiladagi teng huquqlilikka oid masalalar o'z ifodasini topgan. Lekin Konvensiyada oiladagi zo'ravonlikka doir qoidalar aks etmagan.

1980-yillarda boshlangan ikkinchi bosqich xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalarini qamrab oldi va bu muammoning oldini olishni muhim vazifa deb belgiladi. BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasining qabul qilinishi va BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi huzurida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalari bo'yicha Maxsus ma'ruzachi lavozimi joriy qilinishi ushbu harakatning muhim natijalaridandir. Xotin-qizlar huquqlari masalalari, ularning davlat va jamiyat oldidagi tengligi ko'pincha muayyan mamlakat, xalq yoki millatning o'ziga xos xususiyatlariga borib taqaladi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va roliga nisbatan shakllangan aqidalar asosidagi munosabatlar qonunan mustahkamlangan va huquqiy normalar bilan belgilangan emas, biroq ularga o'zgartirish amri mahol bo'lgan mangu masala sifatida qaraladi.

Jamiyatning barcha sohalarida, ya'ni iqtisodda, siyosatda, ijtimoiy hayotda jamiyat barcha a'zolarining, shu jumladan, Ayollarning erkaklar bilan teng imkoniyatlari ta'minlab berilmas ekan, bu jamiyatda ayollar huquqlarini ta'minlashga oid vazifalar ijobiy hal etilmoqda, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham XXI asrga kelib, xalqaro maydonda ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadida turli xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda. Ularda ayollar huquqlariga oid muammolar o'rganilmoqda va ayollarning jamiyatdagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlash hamda ularning barcha huquqlariga amal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday taklif va tavsiyalar asosida esa davlatlar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar ishlab chiqilmoqda va davlatlar tomonidan imzolanmoqda. Ularga 1967-yilgi "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya", 1979-yilgi "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya", Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, BMTning 1993-yilgi "Ayollarga nisbatan zo'rliklar va jabr-zulmlarga barham berish to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning hujjatlarini misol keltirish mumkin. Shuni yana alohida qayd etish lozimki, yuqorida aytib o'tilgan xalqaro hujjatlardan tashqari ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlar ham shakllanmoqda. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya asosida tashkil etilgan BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasini bunga misol qilib

keltirish mumkin. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokoli 2000-yil 22-dekabrda kuchga kirdi. Unda ikkita protsedura mavjud: alohida shaxs yoki shaxslar guruhining Konvensiyada bayon qilingan huquqlar buzilganligi bilan bog'liq shikoyatlarini qamrab olgan axborotni Qo'mitaga taqdim etish protsedurasi va tergov o'tkazish protsedurasi bo'lib, unga ko'ra Konvensiyada bayon qilingan huquqlar jiddiy va tizimli ravishda buzilishi holatlari bo'yicha Qo'mitaning o'zi tashabbusi bilan tergovni qo'zg'atishi mumkin. Demak, mazkur Fakultativ protokol protsedurali protokol bo'lib, unga ko'ra Konvensiyani amalga oshirishga va ayollar huquqlari buzilishi masalalariga taalluqli ikki yangi protsedura: alohida shaxslarning shikoyat taqdim etish protsedurasi va tergov protsedurasi kiritilmoqda.

Xalqaro konferensiya 1975-yilda Mexikoda boshlandi. Unda 1975-yil xalqaro miqyosda "Ayollar yili" deb e'lon qilindi va xalqaro hamjamiyatga yana bir bor ayollarga nisbatan munosabatda kamsitishga yo'l qo'yilayotgani ko'p davlatlarda yechilmas muammo sifatida qolib kelayotgani eslatib o'tilib, konferensiya malaka almashish, munozara, kelishuv, maqsadlar qo'yish, mavjud ahvolni tahlil etish bilan boshlandi. BMT Bosh Assambleyasi Konferensiya ishtirokchilari oldiga quyidagi uch masalani qo'ydi:

- gender tenglikni ta'minlash va jinsga bog'liq belgilarda kamsitishni yo'qotish;

- ayollarni rivojlanish jarayoniga jalb qilish va ularning bu jarayondagi ishtirokini to'liq ta'minlash;

- ayollarning butun dunyo bo'yicha tinchlikni ta'minlashdagi hissasini oshirish.

Yuqoridagi uchta masala yuzasidan butun dunyoda amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyatning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan dastur qabul qilindi. Ko'tarilgan masalalarni hal etish uchun 10 yillik muddat belgilandi. Dastur ayollarni ta'lim olish, bandlik, siyosiy faoliyat, sog'liqni saqlash, uy joy bilan ta'minlash, oziq-ovqat va oilani rejalashtirish sohalarida tenglikni ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalarni o'z ichiga olgan. Konferensiya ishtirokchilari boshqaruv organlarini milliy strategiyani ishlab chiqish va rivojlanish jarayonida Ayollarning teng huquqli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniqlashga chaqirdilar. 10 yillikning oxirida BMTning 127 ta a'zo-davlati mazkur yo'nalish bo'yicha milliy mexanizmi va institutlarini tashkil qilishgani hamda u borada tegishli tadqiqotlar o'tkazilayotgani haqida ma'lumotlar berdi. Ayollar ahvolini yaxshilashga qaratilgan BMT Departamentiga Mexikodagi konferensiyada qo'shimcha qilib, Ayollar ahvolini

Xalqaro konferensiya 1975-yilda Mexikoda boshlandi. Unda 1975-yil xalqaro miqyosda «Ayollar yili» deb e'lon qilindi va xalqaro hamjamiyatga yana bir bor ayollarga nisbatan munosabatda kamsitishga yo'l qo'yilayotgani ko'p davlatlarda yechilmas muammo sifatida qolib kelayotgani eslatib o'tilib, konferensiya malaka almashish, munozara, kelishuv, maqsadlar qo'yish, mavjud ahvolni tahlil etish bilan boshlandi.

Kopengagen konferensiyasi 1980-yilda II Xalqaro konferensiya sifatida o'z ishini boshladi. Unda 145 davlat vakillari ishtirok etdi va bu sohada rivojlanish mavjudligini e'tirof etishdi. Konferensiya qatnashchilari Mexikoda 5 yil avval bo'lib o'tgan konferensiyada qo'yilgan maqsadlar amalga oshganining guvohi bo'lishdi.

yaxshilashga qaratilgan xalqaro tadqiqot instituti va BMT jamg'armasi tashkil qilindi. Mexikodagi uchrashuvning asosiy belgisi shu bo'ldiki, unda Ayollarning o'zlari muhokamada ishtirok etdilar. Delegatlarning 133 nafaridan 113 nafari ayollar edi. Bu anjumanga parallel ravishda nodavlat tashkilotlarining forumi o'tkazildi va unda 4000 nafar atrofida vakillar qatnashdi. Fomda ishtirok etgan Ayollarning fikrlari xilma-xil bo'lib, ular o'z mintaqasidagi muammolardan kelib chiqqan edi. Masalan, Sharq ayollari o'z qiziqishlarini dunyoda tinchlik o'rnatishga qaratgan bo'lsalar, G'arb ayollari tenglikni saqlashga, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayollari esa o'z e'tiborlarini o'tish davri muammolariga qaratdilar. Forum turli davlatlarning ayol va erkaklarini yig'ib, ayollar harakatini birlashtirishga bevosita yordam berdi.

Kopengagen konferensiyasi 1980-yilda II Xalqaro konferensiya sifatida o'z ishini boshladi. Unda 145 davlat vakillari ishtirok etdi va bu sohada rivojlanish mavjudligini e'tirof etishdi. Konferensiya qatnashchilari Mexikoda 5 yil avval bo'lib o'tgan konferensiyada qo'yilgan maqsadlar amalga oshganining guvohi bo'lishdi. Eng asosiy qilingan ishlardan biri 1979-yilda Bosh Assambleya tomonidan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya" qabul qilinishi bo'ldi. Konvensiya "Ayollar huquqlari bilimi" nomini oldi va u hozirda BMTning 165 a'zo-davlatlarini birlashtirgan. 1999-yil 10-dekabrda Konvensiyaga qo'shimcha protokol qabul qilindi va bu jinsiy kamsitishga yo'l qo'yilayotgani yuzasidan xalqaro organga shikoyat bilan murojaat qilish imkonini berdi. Kopengagendagi konferensiya turli xil fikrlar va bahslar bilan o'tdi va dastur qabul qilindi. Unda ayollar huquqlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan quyidagi bir qancha omillar sanab o'tildi:

- ayollarning jamiyatdagi rolini oshirishda erkaklar ishtirokining yetishmasligi;
- siyosiy xohishlarning yo'qligi (yetishmasligi);
- rejalashtirishda ayollarning asosiy ehtiyojlarini hisobga olmaslik;
- boshqaruv organlarida ayollar soni kamligi;
- davlat hayotida ayollar ishtirokini ta'minlovchi xizmatlarning yetishmasligi;
- moliya resurslarining yetishmasligi;
- ayollar o'z imkoniyatlarini anglab yetmasliklari.

Gender tenglik yuzasidan III konferensiya "BMT 10 yilligi – ayollar yutuqlarini sharhlash va baholash xalqaro konferensiyasi: tenglik, taraqqiyot va tinchlik" deb nomlanib, 1985-yilda Nayrobida o'tkazildi. 15000 nafar vakillarning ko'pchiligi nodavlat notijorat tashkilot (NNT) laridan bo'lib, bir vaqtning o'zida NNTlar forumining ishtirokchilari edi. Mexikoda siyosiy va iqtisodiy tarmoqlardagi huquqlar yuzasidan

birlashgan ayollar harakati endilikda tenglik, rivojlanish, tinchlik bayrog'i ostida birlashdi, xalqaro kuchga aylandi. Bahs-munozara va qilingan ishlar tahlili ma'lumotlar, yangiliklar hamda bilim va tajribani oshirdi. BMT to'plagan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kamsitishlarning yo'qolishi va kamayishi faqatgina kam ta'minlangan ayollar o'rtasida yuz bergan. Rivojlanayotgan davlatlarda ayollar ahvoli yaxshilanishi sezilmas darajada amalga oshirilgan. Qisqacha qilib aytganda, ikkinchi o'n yillikda qo'yilgan masalalar oxirigacha hal etilmagan. Yuqoridagi faktlar inobatga olinib, masalaga yangicha qarash talab etildi. Nayrobi delegatlari o'n yillik maqsadlarini tenglik, rivojlanish va tinchlikka erishish borasida yangi yo'llarni izlashdan boshladi. Nayrobi statistikasi 2000-yilgacha rejalashtirilgan bo'lib, BMTning 157 ishtirokchi-davlatlari tomonidan ishlab chiqildi va bir ovozdan qabul qilindi. Ayollar insoniyat faoliyatining hamma sohalaridagi boshqaruv ishlarida ishtirok eta olishi nafaqat ularning qonuniy huquqlariga, balki ijtimoiy-siyosiy zarurat omiliga ham aylandi. Hujjatga asosan milliy doirada turli tadbirlar rejalashtirildi. Ularni uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- Konstitutsiya va qonunchilikni takomillashtirish me'yorlari;
- siyosiy hayotda va qaror qabul qilishda teng ishtirokchilik;
- ijtimoiy dasturlarda tenglik⁶.

Nayrobi konferensiyasining qarori shundan iborat bo'ldiki, endilikda vakolatli delegat har bir davlat tashkiloti va dasturlarida ayollar muammosini hal qilishda ishtirok etadigan bo'ldi.

1975-yilda Mexikoda boshlangan konferensiyadan keyin ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarda tengsizlik ma'lum darajada kamaydi. Konferensiya qarorlari barcha insonlarga, ayniqsa, erkaklar hayotiga katta ta'sir o'tkazdi. Qarorlar qabul qilishda tenglikning tan olinishi BMT tomonidan 90-yillarda o'tkazilgan bir qancha xalqaro konferensiyalarda o'z isbotini topdi: atrof-muhit, inson huquqlari, aholi ijtimoiy rivojlanishi va boshqa turdagi bir qancha konferensiyalarda, qarorlar qabul qilishda Ayollarning to'liq ishtiroki muhimligi ta'kidlandi. Qayd etish lozimki, 1995-yilda Pekinda chaqirilgan Konferensiyada gender tengligi bo'yicha kurashning yangi sahifasi ochildi. 1995-yilda BMTning Ayollar ahvoli bo'yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin Harakatlar platformasi alohida muhim o'rin tutadi. Konferensiya bir ovozdan Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasida 12 yo'nalishdagi alohida sohalariga ahamiyat berildi. Uning muqaddimasi va 12 bo'limi ayollar huquqlari bo'yicha ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha strategiyalar, siyosat va choralar tadqiq etilgan eng to'liq dastur

1975-yilda Mexikoda boshlangan konferensiyadan keyin ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarda tengsizlik ma'lum darajada kamaydi. Konferensiya qarorlari barcha insonlarga, ayniqsa, erkaklar hayotiga katta ta'sir o'tkazdi.

⁶ S.Safayeva. Ayollar masalasi – umumijtimoiy va milliy jihatlar. – T.: O'zbekiston, 2003. – B. 45.

hisoblanadi. Bu sohalarida hukumatlar va jamiyatlar tomonidan quyidagi maxsus me'yorlar qabul qilinishi kerakligi ta'kidlandi:

- ayollar va qashshoqlik;
- ta'lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi;
- ayollar va sog'liqni saqlash;
- ayollarga nisbatan zo'ravonliklar;
- qurolli mojarolar davrida ayollar;
- ayollar va iqtisod;
- ayollarning boshqaruv organlarida va qaror qabul qilishdagi ishtiroki;
- ayollar holatini yaxshilashda institutsional mexanizm;
- ayollar va inson huquqlari;
- ayollar va ommaviy axborot vositalari;
- ayollar va atrof-muhit;
- qizlar.

Pekin konferensiyasi juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Unda 189 davlatning 17000 nafar delegati ishtirok etdi. Qilingan ishlarning tahlili Pekin Harakat platformasi qabul qilingandan keyin besh yildan so'ng BMT Bosh Assambleyasining maxsus sessiyasida ko'rib chiqildi.

Pekin konferensiyasi juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Unda 189 davlatning 17000 nafar delegati ishtirok etdi. Qilingan ishlarning tahlili Pekin Harakat platformasi qabul qilingandan keyin besh yildan so'ng BMT Bosh Assambleyasining maxsus sessiyasida ko'rib chiqildi. Pekin platformasida ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash to'g'risida shunday normalar bor: "Ayollarga nisbatan o'tkazilgan har qanday zo'ravonlik – har qanday jinsiy belgiga asoslangan tazyiq o'tkazish, ayol salomatligiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy putur yetkazadigan yoki unga azob-uqubat, iztiroblar chekishga olib keladigan, shuningdek, shaxsni yoki jamoa erkinligidan mahrum qilingan yoki mahkum etilgan harakatlari sodir etilishi tushuniladi".

Xulosa. Demak, ayollarga yetkaziladigan zo'ravonlik quyida keltirilgan hodisalarga muvofiq keladi, shu bilan birga, ular bilan cheklanib qolmaydi:

a) oiladagi jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonliklar, jumladan, kaltaklash, sep bilan bog'liq muammolar, er tomonidan xotiniga zulm o'tkazilishi, ayollarga ziyon keltiradigan, ayollar jinsiy a'zolarini mayib qiluvchi operatsiyalar va boshqa turdagi hayotiy amaliyotda kuzatiladigan an'anaviy hodisalar, shuningdek, nikohdan tashqari bo'lgan zo'ravonlik va ayollarning nomus-nafsoniyatiga zo'ravonlik qilish bilan bog'liq bo'lgan tazyiqlar;

b) jamiyatda alohida o'rin tutgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlik, jumladan, zo'ravonlik nomusga tegish, jinsiy aloqaga majburlash va ish joylarida, o'quv yurtlarida va hokazo joylarda ayollarga nisbatan kuzatiladigan tovlamachilik, qo'rquqitishlar, ayollarni fohishalik qilish uchun sotishlar hamda fohishabozlikka majbur qilishlar, ya'ni odam savdosi bilan bog'liq huquqbuzarliklar;

d) ayolga nisbatan qo'llanadigan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'rliklar qayerda sodir etilayotganidan qat'i nazar, davlat tarafidanmi yoki davlatning layoqatsizligidanmi, baribir ayollarning kamsitilishiga kiradi (IV Ayollar ahvoli bo'yicha Jahon konferensiyasi Harakatlar dasturi, 113-bandidan).

Nyu-Yorkda 2000-yil 5-9-iyun kunlari "Ayollar 2000-yilda: ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik, taraqqiyot va tinchlik" deb nomlangan maxsus sessiya o'tkazildi. Ushbu sessiya hukumat va fuqarolik jamiyatiga foydali tajribalar bilan o'rtoqlashish, joriy muammolarni ko'rib chiqish, erkaklar va ayollar tengligiga erishish borasidagi siyosiy yo'nalishlarni ishlab chiqish imkonini berdi. 1993-yil iyun oyida Venada bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha II Butunjahon konferensiyasida "Oiladagi zo'ravonliklar" mavzusi muhokama qilindi. Mazkur muammoning dolzarbligi jahondagi ko'plab mamlakatlarda uydagi zo'ravonliklar keng tarqalgani bilan izohlanadi. Ayollar muammosi bo'yicha 1995-yil sentabrda Pekinda bo'lib o'tgan BMT IV anjumanida uydagi zo'ravonlikni ko'pgina mamlakatlar uchun xos bo'lgan "yuqumli kasallik" deb e'lon qildi.

Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilishga ayollar muammolarini muhokama qilish va ularni hal etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar kiradi.

Gender tenglik uchun kurash 1945-yil BMTning tashkil topishi bilanoq boshlandi. Tashkilotning dastlabki 51 nafar a'zosidan 30 tasi ayollarga erkaklar bilan tenglikda saylov huquqi va davlat ishlari bilan shug'ullanish huquqini berdi. BMT Nizomida erkaklar va Ayollarning teng huquqliligi e'tirof etildi. Gender tenglikka erishish uchun dastlabki qilingan ishlar Ayollarning yuridik va fuqarolik huquqlaridagi muammolarni yechish, dunyo bo'ylab Ayollarning ahvoli bo'yicha ma'lumotlar yig'ishga qaratildi. Vaqt shuni ko'rsatdiki, faqatgina qonunlar bilan teng huquqlilikni ta'minlashga erishib bo'lmas ekan. Shundan keyin gender tengligi uchun kurashning ikkinchi bosqichi boshlandi. Shu maqsadda ayollar ahvolini yaxshilash borasida reja va strategiyalarni ishlab chiqish uchun BMT tashkilotining tashabbusi bilan 4 ta xalqaro konferensiya chaqirildi. Bu konferensiyalar BMT tomonidan jahon miqyosida tashkil qilingan bo'lib, butun dunyo e'tiborini "Gender tengligi muammosi"ga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Konferensiyalar butun dunyo aholisini bir maqsad yo'lida birlashtirdi va rejalar tuzish, yo'nalishlarni belgilash, ayollarning jamiyatdagi va shaxsiy hayotidagi ahvollarini yaxshilash uchun asos bo'ldi.

Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilishga ayollar muammolarini muhokama qilish va ularni hal etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.:O'zbekiston, 2017.B.7.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida” qonuni
3. Muhiddinov.M “Ayollar ilm-fanda”, Oila, 2004
4. Nishonboyeva Q.V. —O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlar. T.:1998 y
5. Yaxyoyeva L. «Ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligi». Toshkent.: 1995.
6. Mustafoev B. Konstitutsiyaviy huquq: Ensiklopedik lug'at. — T.: 2006.
7. Ubaydullayeva R.A. «Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat»T.: Fan, 2006.
8. O'regan K. Egypt's Embattled Feminism [электронный ресурс] // URL: <http://www.middleeasteye.net/essays/egypts-embattled-feminism-2085551274>
9. History and Theory of Feminism [электронный ресурс] // URL: http://www.gender.cawaterinfo.net/knowledge_base/rubricator/feminism_e.htm
10. Marquis de Condorcet, N. The First Essay on the Political Rights of Women. [электронный ресурс] // URL: <http://oll.libertyfund.org/titles/condorcet-on-the-admission-of-women-to-the-rights-of-citizenshipV>